

MAKTABDA TASVIRIY SAN'AT FANI OTILISHINING AHAMIYATI VA UNI  
YANADA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI

Mamitaliev Ahmadjon G'aniyevich

*O'zbekiston badiiy ijodkorlar uyushmasi a'zosi , Andijon davlat pedagogika  
instituti, "Tasviriy san'at " fani o'qituvchisi*

**Solijonova Muhtasaroy Jahongirbek qizi**

*Andijon davlat pedagogika instituti "Tasviriy san'at va muhandislik  
grafikasi" yo'nalishi 2- bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola umumiy o'rta ta'lif maktablarida tasviriy san'at fanining ahamiyati, hozirgi kunda tasviriy san'atni o'qitishning axvoli va uni yanada yaxshilash yo'llari haqida ma'lumotlar beradi hamda tasviriy san'at mashg'ulotlarining samaradorligini oshirish jarayonlarida asosiy o'rinni egallovchi o'qituvchi oldidagi vazifalarni keng tahlil qiladi va bir qancha tavsiyalar beradi.

**Kalit so'zlar :** Tasviriy san'at , mashg'ulot , samaradorlik, o'qituvchi, vazifa, kelajak, ta'lif,maktab, yosh avlod, natija , dars, ko'nikma.

*Erishilgan yutuqlarga mahliyo bo'lib o'tirish , taraqqiyot yo'lidagi eng katta g'ovdir!*

SH .M. Mirziyoyev

Yurtimizda Kadrlar tayyorlash milliy dasturining ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishi ta'lif va tarbiya jarayonida muhim hisoblanadi, chunki o'qituvchi kadrlar tayyorlash hamda ularni har tomonlama yetuk mutaxassis qilib rivojlantirish yuqori malakaga ega pedagoglarni tayyorlash bilan birga kelajak avlodga ham yuqori darajada ta'lif- tarbiya berish uchun asosiy omil hisoblanadi.Davlatimizning ertangi kuni mana shu yetishib chiqayotgan yosh avlodga , yosh pedagog kadrlarga bog'liq desak mubolag'a bo'lmaydi. Bugungi berayotgan ta'lif –tarbiyamiz ertaga o'z natijasini ko'rsatadi. SHuning uchun ham oldimizda turgan eng muhim vazifalardan biri bu sifatli ta'lif tashkil etish hamda ta'lif tizimini tubdan isloh qilishdan iborat.Sifatli ta'lifni tashkil etishni ,yosh avlodni har tomonlama rivojlangan shaxs qilib shakllantirishni esa avvalo umumta'lif maktablaridan boshlamog'imiz darkor.Umumta'lif maktablarimizda bugungi kunda ta'lif –tarbiyaning olib borish jarayonlari avvalgi 5-6 yilga nisbatan ancha yaxshi holga kelgan.Hozirgi kunda yosh avlodni ma'naviy yetuk va tasavvur dunyosini kengaytirishda "Tasviriy san'at"

fanining ahamiyati muhim hisoblanmoqda .Tasviriy san'at darslari o'quvchi yoshlarda g'oyaviy e'tiqodini shakllantirishda hamda badiiy tarbiya berishda aloxida ahamiyat kasb etadi.Shu bilan birga tasviriy san'at o'quvchilarni ruhiy tarbiyalashda ham salmoqli o'rinni egallaydi. Ayniqsa , uning aqliy – axloqiy , g'oyaviy –siyosiy ,mehnat tarbiyasini amalga oshirishdagi rolini alohida qayd qilib o'tmoq lozimdir.

Tasviriy san'at o'quv predmeti tarbiyaning tarkibiy qismlaridan bo'lgan mehnat tarbiyasini amalga oshirishga samarali ta'sir ko'rsatadi.Negaki , tasviriy san'at mashg'ulotlarida o'quvchilar amaliy ishlar ya'ni amaliy ijod bilan shug'ullanadilar, turli o'quv materiallaridan , asboblardan foydalanishni o'rganadilar. Mazkur o'quv predmeti yana o'quvchilarda estetik xis-tuyg'ular ,badiiy faoliyat va san'atga bo'lgan qiziqish xislarini tarbiyalaydi. SHu bilan birga , tasviriy san'at inson shaxsining shakllanishiga va umuman olganda kamolotiga yordam beradigan tarbiyachi ham sanaladi.

Hozirgi vaqtida umumta'lim maktablarimizning oldiga qo'ygan asosiy vazifalaridan biri o'quvchi yoshlarda borliqni faqat ijodiy o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyoj va qobiliyatini shakllantirishgina emas , balki ularda go'zallik va nafosat qonunlari asosida atrof borliqni qaytadan qurish hissini tarbiyalash hamdir. Atrofimizdagi har bir inson qaysi sohada ish olib borayotganligidan qat'iy nazar nafislik va go'zallikni ko'ra bilishi va tushuna bilishi kerak.O'quvchilarni estetik jihatdan tarbiyalash maqsadida o'qituvchi ularga atrof- tabiatdagi go'zalliklarni , shakllarning turli- tumanligini ko'rsatadi.O'quvchilarga quvonch ,hayajon baxsh etgan tabiat go'zalliklari , so'z bilan tasvirlab bo'lmas rang birikmalari ancha vaqtlargacha ularning ko'z o'nggida , xayolida saqlanadi. Manzaraning , suvlarning ,daraxt shoxlarining , barglarining ,gullarning o'ziga qarab rasmini chizish , ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish orqali bolalar tabiatga ko'proq qiziqadigan bo'ladilar. Bunday darslar o'quvchilarga dunyoni keng va atroficha ko'ra olishga , qolaversa ko'rish orqali olgan taasurotlarini kengaytirishga hamda shular asosida aniq va to'liq tushunchaga ega bo'lishlariga yordam beradi.

Tasviriy san'at darslarida yana yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek o'quvchilarda mehnat tarbiyasini amalga oshirish uchun katta imkoniyatlар mavjud. O'quvchilar naturadan , narsaning o'ziga qarab rasm ishlash jarayonida turmushda qo'llanadigan turli buyumlar , sabzavot va mevalar va h k tasvirini ishlaydilar. O'qituvchi dars o'tish jarayonida o'quvchilar mustaqil ish boshlamaslaridan oldin naturani qisqacha tahlil qilib , faqat buyumlar shakli, rangi, va tuzilishi haqidagina emas balki ularni yaratish uchun sarflanadigan katta mehnat borasida ham so'zlab beradi. Masalan; kundalik

hayotimizda ishlataliladigan buyumlardan choynak va piyolalarni olsak o'qituvchi o'quvchilarga bularni o'ziga qarab rasm chizdirishdan oldin mazkur buyumlarning vazifasi , shakli, ularning qanday materiallardan tayyorlangani va bularni tayyorlash uchun qancha mehnat sarf bo'lgani va h k lar haqida gapirib beradi . Amaliy san'at haqida suhbat darslarida esa o'qituvchi amaliy san'at turlari hisoblangan naqqoshlik , kulolchilik , ganchkorlik va boshqalar haqida birma – bir tushuntirib beradi . Bularni eshitib o'quvchilarda mehnat tarbiyasi shakllanadi. Tasviriy san'at o'quv fanini o'qitishning asosiy vazifalari;

-O'quvchilarda tasviriy va amaliy san'at asarlarini , me'morchilik , hunarmandchilik hamda dizayn san'atiga oid tarixiy hamda zamonaviy san'at asarlarini tahlil qilishga o'rgatish .

- Naturaning xarakterli jihatlarini ko'ra olish, tahlil qilish va tasvir yoki haykalni ishlash bosqichlarini ketma –ketlikda to'g'ri bajara olishga o'rgatish .

- Texnika va texnologiyalarning takomillashib borishi asosida fanlar integratsiyasini hisobga olgan holda to'g'ri va ongli kasb tanlashga yo'naltirish .

-Tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish hamda rivojlantirishdan iboratdir.

Maktablar o'z nomiga ko'ra umumiyligi o'rta ta'limga deb nomlanib , unda tasviriy san'at fani ham boshqa fanlar qatori tasviriy , amaliy va me'morchilik san'atlaridan umumiyligi , elementar bilim va malakalar beradi va shuni o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi.

Har bir o'quvchi kelajakda qaysi kasb yoki hunarni , sohani egallashidan qat'iy nazar ya'ni ishchi , muhandis , dizayn –konstruktor va hatto shifokor , yurist , harbiy bo'lsa ham qanchadir miqdorda rasm chizishga , undan foydalanishga to'g'ri keladi. Hatto uy bekasi ham rasmni ko'ra olishi , tushunishi hozirgi zamonning eng zarur faoliyatidir.

Ma'lumki , hozirgi vaqtida dars mazmuni va metodikasini takomillashtirish o'qituvchining ilmiy va metodik saviyasi bilan , darslarni to'g'ri tashkil etish va o'tkazish bilan bevosita bog'liqdir . O'qituvchilarning ilmiy-metodik saviyalari darajasini ko'rsatuvchi faktorlar ularning bilim xajmi va metodik tayyorgarligi xisoblanadi va bu narsa o'tilayotgan dars mashg'ulotlarining natijalarida ko'rindi.

Bugungi kunda darsga puxta tayyorlanmasdan kirib yaxshi natijalarga erishib bo'lmaydi chunki vaqt o'tishi bilan fanda yangiliklar , dars o'tishning yangi samarali usullari paydo bo'ladi. O'qituvchi esa tajribasidagi ba'zi bir materiallarni ko'rib chiqib , qayta yodga tushirish , mustahkamlash kerak bo'ladi. Tasviriy san'at darslari bevosita o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini ,

estetik didi hamda ijobiy qobiliyatini va fantaziyasini o'stirish , rivojlantirish bilan bog'liq. SHuning uchun ham tasviriy san'at o'qituvchisidan dars o'tish jarayonida tashabbuskorlik , topqirlik va albatta ijodkorlik ko'rsatish talab etiladi. Dars jarayonida o'qituvchi har bir o'quvchi ustidan jiddiy nazorat o'tkazib turishi muhim hisoblanadi.

Ayrim o'qituvchilar faoliyatida ro'y beradigan

xatolardan biri, ularning o'quvchilar tasviriy ishlariga ijodiy xarakter bermaslikdir. Bizga ma'lumki tasviriy san'atni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlaridan biri ham uning ijodiy yo'nalishda bo'lishidir. O'quvchilarning ijobiy qobiliyatlarini o'stirish masalasi umuman har bir darsda amalga oshirilishi lozim. Qolaversa , o'qituvchi san'at haqida suxbat darslari ham olib borib bolalarga rassomlarning hayoti va ijodi , ishga ijobiy yondashuvi haqida hamda rassomning yaratgan asarlari ustida fikr –mulohazalar berishi kerak bo'ladi va bu albatta yuqoridagi fikrlarni , masalalarni to'g'ri xal qilishga yordam beradi . Mavzu asosida rasm chizish darslari qayd qilib o'tganimizdek , ijodiy xarakterga ega bo'lishi zarur. Ammo darslarda o'quvchilar ko'rgazmali qurollarning ozligi , yetishmasligi bois erkin mavzu asosida rasm chizish bilan chegaralanib qolmoqdalar va bu bolalarning tasviriy san'atga qiziqishlarining o'smasligiga olib bormoqda . Borliqni idrok etish , o'rganish o'z nomi bilan atrof –tabiatda , ko'chalarda , tarixiy va madaniy yodgorliklar hamda istirohat bog'lariga tashrif buyurish orqali amalga oshiriladi. Bunda o'quvchilar borliqdagi rang – baranglik , shakl , turli – tumanlik hamda garmoniya haqida tushunchaga ega bo'ladilar va haqiqiy atrofdagi manzarani go'zalliklarini , ranglarning uyg'unliklarini ko'ra oladilar va shundagina go'zallik ularni to'lqinlantirgandagina ularning ijodiy faoliyatları aktiv tus olishi mumkin deya olamiz .

Hozirgi kunda oily va o'rta maxsus pedagogika o'quv yurtlarida ta'lim mazmuni eng dolzarb vazifalardan biriga aylangan . Bu vazifani hal etish yana o'qituvchidan o'z fani doirasida chuqur va keng bilimli , shuningdek , ijodkor va izlanuvchan bo'lishini talab qiladi. CHunki pedagog o'z kasbini chuqur bilsagina kelajak avlodga o'z kasbini to'g'ri va mazmunli yetkazib bera oladi .

Maktabda tasviriy san'atni o'qitish Aristotel davridan boshlanib , qadimgi Yunonistonda Sikion , Efes , Fivan maktablarida takomillashib borgan o'rta asrlarda tasviriy san'atni o'qitishning har xil texnologiyasi , didaktika va metodikasi fan sifatida shakllana borgan . Tasviriy san'atni o'qitishda yuqorida bir necha bor ta'kidlab o'tganimizdek g'oyat murakkab jarayonlar sodir bo'ladi. Aynan shuning uchun ham o'qituvchi darsni olib borish jarayonida turli faollashtiruvchi metod va uslublardan foydalanishi talab etiladi. Maktabda tasviriy san'atning o'qitilishi va uning metodikasi yaratilishida Y. A

KOMENSKIY , K.D USHINSKIY , I. G TESTOLLOTSSI , CHISTYAKOV , DYURER kabi pedagoglar o'zlarining munosib hissalarini qo'shishgan . O'tgan yillarda boshlang'ich sinflar uchun ham "Tasviriy san'at " darsligi yaratildi. Tasviriy san'at ni o'qitish metodi va didaktikasiga oid qator metodik qo'llanmalar chop etildi. Mustaqillik yillarida maktabda tasviriy san'atni o'qitishga alohida e'tibor berildi. Mazkur fan bo'yicha Davlat ta'lim standarti , uni o'qitish konsepsiysi va dasturlari mukammal ishlab chiqildi . Yangi texnologiya va dasturlar asosida o'quv qo'llanmalar ham ishlab chiqildi. Dars o'tish jarayonida bular katta yordam vazifasini o'tamoqda .

SHuni xulosa o'rnila aytishimiz mumkinki tasviriy san'at yuqorida keltirib o'tilganidek bir necha mas'uliyatli ishlarni o'z oldiga maqsad va vazifa qilib qo'yadi. Mazkur o'quv predmetining maqsad va vazifalari haqida to'xtalganda yana shuni qayd qilib o'tmoq lozimki u maktabda o'qitiladigan barcha o'quv predmeti bilan bog'lanadi. Umuman olganda tasviriy san'at o'quvchi yoshlarni har tomonlama yetuk va barkamol bo'lib kamol topishida asosiy o'rinni egallaydi . Bir so'z bilan aytganda inson hayotidagi o'rni beqiyos. Ammo hozirgi kunda tasviriy san'at fanining umumta'lim maktablarida ozroq o'tilganligi bois o'quvchilarda mazkur fanga nisbatan qiziqishlari uyg'onmayapdi . Umuman bu fanga bolgan qiziqishlar chanqoq bo'lib qolmoqda . Yuqorida biz tasviriy san'atni inson hayotidagi muhim o'rnlari haqida to'xtalib o'tdik va bildikki mazkur fan bolalarning ma'naviy- madaniy , dunyoqarshi boy , vatanparvar , estetik didli , dunyoni keng va atroflicha ko'ra oladigan va bir so'z bilan aytganda komil inson bo'lib ulg'ayishida o'rni va roli beqiyos. SHunday ekan bu fan umumta'lim maktablarida kengaytirilsa va shu bilan birga tasviriy san'at o'qituvchilari ham o'z kasbini sevib o'z ustida ishlasa , darsni olib borishdan oldin o'zini bilim , malakalarini mustahkamlab olishsa o'ylaymizki oldiga qo'ygan maqsadlariga erishadilar.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

- 1.R. Hasanov . Maktab tasviriy san'atni o'rgatish metodikasi.
- 2.N. Rostoven . O'rta maktabda tasviriy san'atni o'qitish metodikasi. M; 1980 y
3. S. Abdirasilov . Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. T; 2012 y
4. R. Hasanov . Maktabda tasviriy san'at mashg'ulotlarini takomillashtirish yo'llari . "O'qituvchi " nashriyoti 1986 y
5. N. Saidahmedov. "Yangi pedagogik texnologiyalar ", "Moliya " nashriyoti 2003 y Toshkent
6. B. Oripov . Tasviriy san'at va uni o'qitish metodikasi . " Ilm -ziyo nashriyoti " 2005 y Toshkent